

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 02, февраль

## TIBBIYOT SOHASI BILAN BOG‘LIQ TERMINLARNI INGLIZ TILI AMALIY MASHG‘ULOTLARIDA O‘RGATISH USULLARI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

*Hamroyeva Sanobar Hasan qizi*

*Tarix va filologiya kafedrası*

*Osiyo Xalqaro Universiteti*

*Buxoro, Uzbekistan*

*Email: [hamroyevasanobar1@gmail.com](mailto:hamroyevasanobar1@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ingliz tili amaliy mashg‘ulotlarida tibbiyotga oid terminlarni o‘rgatishning metodik jihatlari va o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Tibbiy terminologiyaning murakkabligi va uni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish zarurati talabalar til kompetensiyasini shakllantirishda maxsus yondashuvlarni talab etadi. Maqolada terminologiyani o‘rgatishda kontekstual yondashuv, interfaol metodlar hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, bu mashg‘ulotlarning tibbiyot talabalari uchun amaliy ahamiyati, ayniqsa kasbiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish va tibbiy ma‘lumotni aniq hamda ravon ifodalash imkoniyatini oshirishdagi roli muhokama qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** *Tibbiyot terminologiyasi, Interfaol metodlar, Kasbiy muloqot, Til kompetensiyasi, Tibbiy atamalar, Integratsiyalashgan metod, Ilmiy-tadqiqot ishlari, Interaktiv o‘qitish, Interfaol metodlar.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируются методические аспекты и особенности обучения медицинской терминологии на практических занятиях по английскому языку. Сложность медицинской терминологии и необходимость её интеграции в учебный процесс требуют специальных подходов для формирования языковой компетенции студентов. В статье рассматривается эффективность использования контекстного подхода, интерактивных методов и современных технологий при обучении терминологии. Кроме того, обсуждается практическое значение таких занятий для студентов-медиков, в частности их роль в развитии профессиональных коммуникативных навыков и способности чётко и ясно излагать медицинскую информацию.*

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 02, февраль

**Ключевые слова:** Медицинская терминология, Интерактивные методы, Профессиональная коммуникация, Языковая компетенция, медицинские термины, интегрированный метод, научно-исследовательские работы, интерактивное обучение, интерактивные методы.

**Annotation:** This article analyzes the methodological aspects and specific features of teaching medical terminology in practical English lessons. The complexity of medical terminology and the need for its integration into the learning process require special approaches to developing students' language competence. The article highlights the effectiveness of using a contextual approach, interactive methods, and modern technologies in teaching terminology. Additionally, the practical significance of these lessons for medical students is discussed, particularly their role in developing professional communication skills and enhancing the ability to express medical information clearly and accurately.

**Keywords:** Medical terminology, Interactive methods, Professional communication, Language competence, Medical terms, Integrated method, Scientific research, Interactive learning, Interactive teaching methods.

## Kirish

Tibbiyot fani va sog‘liqni saqlash amaliyotining yildan yilga rivojlanib borishi zamonaviy tadqiqot uslublan va yangi pedagogik texnologiyalar, diagnostik uslublar hamda zamonaviy kompyuterlarni tibbiyotning barcha bo‘limlariga kirib kelishi bilan xarakterlanadi. Bulaming hammasi bo‘g‘usi shifokorlardan ularning fizika, matematika va texnikaviy fanlar xususan ‘Tibbiyot elektronikasi’ bo‘yicha nazariy va amaliy bilim darajalarini yanada oshirib borishlarini talab qiladi. Shularni hisobga olgan holda, ushbu o‘quv qo‘llanma ‘‘Tibbiy texnika va yangi tibbiyot texnologiyasi’’ - fani namunaviy dasturiga mos tarzda ishlab chiqilgan bo‘lib, tibbiyot priborlari va apparaturalari bilan ishlashda ularning vazifasi, texnik xarakteristikasi, tuzilishi va ishlash prinsipi, qurilmani ishga tayyorlash va ishlatish hamda barcha qurilmalarda qanday texnikaviy xavfsizlik choralariga amal qilish alohida - alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Shifokor o‘zining amaliy faoliyati jarayonida atrof-muhitning bunday faktorlarini inson organizmiga ta‘sirini baholay bilishi lozim. Chunki diagnostika va davolash uchun zarur bo‘lgan inson organizmida sodir bo‘ladigan turli murakkab jarayonlar: qon aylanishi, tomir bo‘ylab elastik to‘qin va tebranishlarni (pulslar)

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 02, февраль

tarqalishi, yuiakning mexanik ish faoliyati, biopqtensiallarnmg generatsiyasi, nafas olish, issiqlik uzatish, bug‘lanish,, hujayralardagi modda almashinishi - diffuziya hodisasi va hokazolarga tashqi muhit faktorlari ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun zamonaviy tibbiyot barcha kasalliklami diagnostikasi, davolash va sanitariya gigiena usullari uchun yuqoridagi faktorlar ta’sirini qayd qiluvchi, ishlov beruvchi va turli energetik kattaliklar bilan ta’sir etuvchi turli tibbiy pnborlar, apparatlar va jihozlardan foydalanishni taqozo etadi. Buning uchun diagnostika apparatlarining asosiy qismi: kalorimetr, balistokardiograf, elektrokardiograf, fonokardiograf, reograflar va boshqalar haqida ma’lumotga ega bo‘lish lozim. Davolash maqsadida organizmga turli fizik faktorlar (ultratovush, elektr toki, elektromagnit maydon va boshqalar) bilan dozali ta’sir ko'rsatishni ta'minlovchi elektron qurilmalar, mikroto‘lqinli terapiya apparatlari, elektroximrgiya uchun apparatlar, kardiostimulyatorlar va boshqalami tuzilishi va ishlash prinsiplarini bilish maqsadga muvofiqdir.

Tibbiyot terminologiyasi bu tibbiyot sohasida ishlatiladigan maxsus ilmiy atamalar tizimi bo‘lib, kasalliklar, anatomiya, dori vositalari, muolajalar va diagnostika usullari kabi ko‘plab tibbiy tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu terminlar tibbiyot mutaxassislari o‘rtasida aniq va tushunarli muloqotni ta‘minlash uchun ishlab chiqilgan. Tibbiy terminologiya ko‘pincha murakkab tuzilishga ega bo‘lib, lotin va yunon tillaridan kelib chiqqan. Bu terminlarni samarali o‘rgatish uchun maxsus metodikalarga asoslangan amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish talab etiladi. Ushbu maqolada ingliz tili amaliy mashg‘ulotlarida tibbiyot terminologiyasini o‘rgatish metodikasining o‘ziga xos xususiyatlari va samarador yondashuvlar haqida batafsil ma’lumot beriladi. Tibbiyot terminologiyasi tibbiy sohaning maxsus tili bo‘lib, u ilmiy aniq, tizimli va o‘zaro

tushunish uchun standartlashtirilgan atamalardan iborat. Bu terminlar o‘zining aniqligi va to‘g‘ri qo‘llanilishi bilan bemorlar bilan muloqotda, diagnostika va davolash jarayonida hamda ilmiy tadqiqotlarda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tibbiyot atamalari ko‘pincha murakkab bo‘lib, ular talabalar uchun maxsus o‘qitish metodikalari va strategiyalarini talab qiladi. Murakkablik va kelib chiqishi. Tibbiyot terminologiyasining ko‘pchilik qismi lotin va yunon tillaridan kelib chiqqan. Ushbu tillarning foydalanilishi sababli, atamalar ko‘pincha prefikslar, suffikslar va ildiz so‘zlardan tashkil topgan. Bu esa terminlarning o‘z ichida ma’noni aniq ifodalash uchun tizimli strukturaga ega bo‘lishini ta‘minlaydi.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 02, февраль

Turli sohalarga doir lug‘atlar tuzish har bir sohada yetakchi olimlarning ilmiy kuchlarini birlashtirishni talab qiladi. Tibbiyot olimi ham, amaliyotchi vrach ham bevosita inson salomatligi bilan shug‘ullanganligi uchun o‘z ishining mohir ustasi bo‘lishi talab etiladi. Lekin ular qilgan mehnatlarini qayd etib, tajriba to‘plashi uchun, bemorlarning holatini aniq ta’riflash, tashxis qo‘yish, shuningdek, muolaja chora-tadbirlarini belgilashda zamonaviy fan va texnologiyalar tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan bir paytda tibbiyotning barcha sohalaridagi yangi yuzaga kelgan atamalarni yaxshi bilishi talab qilinadi. Ayrim hollarda tibbiyot xodimi kasallikning kechishiga doir holatlarni aniq ifodalashda bu atamalarning lotinchasini bilsa-da, ruscha yoki o‘zbekchasini aniq bilishga qiynalishi mumkin. Ayni shu paytda, qo‘lingizdagi “Tibbiy atamalar lug‘ati” yordamga keladi. Yana bu lug‘at bir soha vrachiga boshqa yondosh sohalarga doir bemorlik holatlarining atamalarini bilishga ham ko‘mak beradi. Shu bois, atama lug‘atlaridan klinik atamalar, tibbiy iboralar bilan bir qatorda anatomiya, fiziologiya, xirurgiya, tibbiy psixologiya, psixoterapiya, stomatologiya, biokimyo, farmakologiya, psixiatriya, yuqumli kasalliklar, mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya, hamshiralik ishi hamda sog‘liqni saqlash muassasalari va tibbiyotning boshqa jabhalarida keng qo‘llaniladigan yangi atamalar ham o‘rin olgan.

Tibbiyot fakulteti talabalariga ingliz tilini o‘qitishning ba’zi jihatlarini qayta ko‘rib chiqish zarurati kun sayin ortib bormoqda. Bu faqat bo‘lg‘usi shifokorlarning turli xil akademik va kasbiy vaziyatlarda chet ellik kasbdoshlari bilan yuqori sifatli aloqasini ta’minlaydigan vakolatlarni har tomonlama rivojlantirish mamlakatimiz tibbiyot xodimlarining ish samaradorligi va ko‘lamining asosiy muhim omili ekanligi bilan belgilanadi. Chet tilini nofilologik oliy ta’lim muassasalarida o‘qitishda ba’zi qiyinchilik hamda muammolar mavjud. Birinchidan, bu tayyorgarlik vaqti jiddiy cheklanishi mumkinligi. Ikkinchidan, talabalarning aniq talab va ehtiyojlari o‘qituvchi uchun qo‘shimcha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, bu esa ingliz tilini yuqori ixtisoslashgan professional aloqa sohasida amalga oshirish bilan bog‘liq. Talabalarning umumiy ingliz tili ko‘nikmasi yetarli darajada bo‘lmaganligini hisobga oladigan bo‘lsak, tibbiy terminologiyani egallash juda ham mashaqqatli hisoblanadi. Chunki talaba bir darsning o‘zida ham mavzuga doir terminlarni o‘zlashtirishi, grammatik qurilmalarga gap tuza olishi, berilgan o‘qish va tinglab tushunish mashqlaridan bemalol darajada foydalana olishi zarur. Har bir jarayonning o‘ziga xos

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 02, февраль

oddiydan to murakkabga qadar davrlashtirilgan bosqichlari o'zlashtirish darajasini osonlashtiradi. Lekin tajribali ESP o.,qituvchisi ham ba'zan, pedagogik taktika yoki o'quv dastur yordamida o'ylagan natijaga erisha olmasligi mumkin. Bunda talabalarning o'zlari, kontent qaysi usul samarali ekanligini belgilaydi. Masalan, 1980 yillarning boshlarida Xitoyda ingliz tili amaliy mashg'ulotlari xuddi shu tarzda tashkillangan. Bunda "intensive reading", ya'ni chuqurlashtirilgan o'qish mashqi va matn ustida so'zma – so'z yondashuv kabi metodlardan foydalanilgan. Janubiy Afrika universitetlarida esa o'qish, yozish va tanqidiy fikrlash kabi ko'nikmalar ham shakllantirilgan. Biz tibbiy atamalarni semantikalash usullarini tahlil qilamiz, tibbiyot talabalari uchun ingliz tili darsini rejalashtirish tamoyillarini tavsiflaymiz va darsning turli bosqichlarida dialogik nutq ko.,nikmalarini rivojlantirish usullarini taklif qilamiz. Biz til aspektlarini o'qitishning eng samarali usullarini ko'rib chiqamiz va guruhlaymiz, ulardan yozma va og'izaki nutqda foydalanish; fonetik, leksik, grammatik, morfologik va sintaktik qobiliyatlarni shakllantirish va takomillashtirish, rivojlantirishga qaratilgan o'quv materiallarini tanlash mezonlarini taqdim etamiz. Tinglash har qanday ingliz tilining chet tili darsi sifatida majburiy tarkibiy qismidir.

Terminologik leksik material bilan ishlash yangi so'zlar va atamalar bilan tanishishni, ularni dastlabki mustahkamlashni va nihoyat, nutq faoliyatining har xil turlarida va turli xil muloqot holatlarida yangi lug'atdan foydalanish ko'nikma va ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Darslarda barqaror leksik ko'nikmani shakllantirish uchun men quyidagilardan foydalanaman: - matn oldidan leksik vazifalar. Ushbu bosqichda yangi lug'at kiritiladi. Shu bilan birga, yangi so'zlarning ma'nosi ham to'g'ridan-to'g'ri tarjimada (Skeleton - skelet), ham chet tilida qisqacha tushuntirish (spine - magistraning asosiy qismi) yordamida berilishi mumkin. Shunday qilib, talabalar boshqa fanlardan olgan bilimlarini qo'llashlari mumkin. Bundan tashqari, yangi lug'at yordamida iboralar tuzish, yangi so'zlarni ma'lum bir prinsip bo'yicha guruhlash (so'zlarni ovqat hazm qilish yoki qon aylanish tizimiga xos qilish), yangi lug'atdan foydalangan holda savollarga javob berish, iboralarni yangi lug'at bilan tarjima qilish taklif etiladi. Ushbu bosqichda yangi lug'atni o'z ichiga olgan haqiqiy matn kiritiladi. Ushbu bosqichda matnda atamalar va frazeologik birliklar ajratib ko'rsatiladi, keyinchalik ular matndan keyingi bosqichda mustahkamlanadi. Matndagi atamalarning mos kelishiga (ta'riflarning mavjudligi, fe'lning otlar bilan mos kelishi) e'tibor qaratiladi. Matn o'rniga bir xil funktsiyaga ega video material taqdim etilishi mumkin.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 02, февраль

Tibbiy terminologiyani o'rganish tibbiyot talabalari uchun o'ta muhim bo'lib, bu ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida bir qator sohalarda muvaffaqiyat qozonishlariga yordam beradi. Birinchi navbatda, tibbiy terminologiya talabalarning kasbiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Bemorlar bilan samarali muloqot o'rnatish va boshqa sog'liqni saqlash mutaxassislari bilan hamkorlik qilishda terminologiyani aniq va to'g'ri qo'llanilishi alohida ahamiyatga ega. Tibbiy atamalarning noto'g'ri ishlatilishi bemorga noto'g'ri ma'lumot berishga yoki tashxis va davolash jarayonida chalkashliklarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, terminologiya bilimlari tibbiy jarayonlarning samaradorligini oshiradi va bemorlar ishonchini

mustahkamlaydi. Ikkinchidan, tibbiy terminologiya ilmiy tadqiqotlar uchun asosiy vosita hisoblanadi. Talabalar tibbiy adabiyotlarni o'qib tushunish, ilmiy maqolalarni yozish va ilmiy natijalarni xalqaro darajada taqdim etishda tibbiy atamalardan foydalanadilar. Tibbiy bilimlarning

aksariyati xalqaro tibbiyot jurnallarida ingliz tilida chop etiladi, bu esa tibbiyot talabalari uchun ilmiy atamalarni bilishni o'ta muhim qiladi. Tibbiy atamalarni yaxshi bilish ularning ilmiy tadqiqot faoliyatida muvaffaqiyatli bo'lishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari, tibbiy terminologiya global hamkorlik uchun zarur bo'lgan ko'nikmalardan biridir. Bugungi kunda xalqaro sog'liqni saqlash sohasidagi konferensiyalar, seminarlar va tadbirlar tibbiyot mutaxassislari uchun tajriba almashish va global muammolarni birgalikda hal qilish imkoniyatini beradi. Bunday tadbirlarda samarali ishtirok etish uchun talabalarning tibbiy terminologiya va kasbiy ingliz tilini yaxshi bilishi talab etiladi. Global miqyosdagi hamkorlik nafaqat individual mutaxassisning rivojlanishiga, balki sog'liqni saqlash tizimining umumiy taraqqiyotiga ham hissa qo'shadi. Tibbiyot sohasiga oid terminlarni o'rgatish maxsus yondashuv va metodikalarni talab qiladi. Ingliz tili amaliy mashg'ulotlarida terminologiyani o'rgatishda kontekstual, interfaol va texnologiyalarga asoslangan usullarni qo'llash talabalar bilimni chuqurlashtiradi va ularning kasbiy kompetensiyasini oshiradi. Kelajakda o'qitish metodikalarini takomillashtirish uchun zamonaviy texnologiyalarni kengroq qo'llash va talabalarning individual ehtiyojlarini hisobga oluvchi dasturlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 02, февраль

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. A.Q. Shadmanov, A. Usmanxodjayev, O‘. Abilov, M. Turaxanova “Tibbiy atamalar lug‘ati” Toshkent “Donishmand ziyosi” 2022.
2. S.I. Fayzullaev – “Improving the methodology of teaching foreign languages based on the competence approach in the higher medical education system”  
Международный научный журнал № 9(100), часть 2 “Новости образования: исследование в XXI веке”  
апрель, 2023 г.
3. N.A. Raximova “Ingliz tili amaliy mashg‘ulotlarida tibbiyot sohasiga oid terminlarni o‘rgatish metodikasining o‘ziga xos xususiyatlari” Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar : nazariy va amaliy “ jurnal <https://doi.org/10.5281/zenodo.14244174>  
ZDIF, 2(10), 81-83, 2023.
4. M.O. Uzaqova “Tibbiyot oliygohlarida ingliz tilini o‘qitishning ahamiyati”  
Ijodkor o‘qituvchi jurnali , 5 yanvar / 2024 yil / 35 – son.